

QORAQALPOQ MILLIY MADANIYATI VA QADRIYATLARINING TASVIRIY  
SAN'ATDAGI O'RNI

Serjanova Miyrasxan Tursinbay qizi

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining milliy madaniyati, qadriyatlari va o'ziga xos an'alarining tasviriy san'at taraqqiyotida tutgan o'rni haqida so'z borgan. Rassomlar tomonidan yaratilgan ijodiy asarlarning mazmunini, vatanga bo'lgan muhabbati va tuyg'ularini ranglar orqali ifodalangan kompozitsiya g'oyalari asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** qadriyat, an'ana, qoraqalpoq xalqi, muzey, o'tov, tasviriy san'at, rassom, asar, milliylik.

Har bir xalq o'zining milliy qadriyatlari, urf-odatlarini asosida rivojlanib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga harakat qiladi va shu asosida o'z milliyligi vujudga keladi. Uzoq davrlardan yuksalib kelayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'alarimiz va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan meroslarimiz shular jumlasidandir. Ularning zamirida mujassam bo'lgan insoniylik, mehr-oqibat, do'stlik, o'zaro totuvlik, tinchlik va ibratli qadriyatlarni qadrlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu milliy qadriyatlarni esa, o'z maqsadlari va umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib boradi.

Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz. Kelajakni biz tarixsiz barpo eta olmaymiz. Tarix esa, manaviyatning asoslaridan biridir. Shunday ekan, har bir inson o'zida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, o'z xalqining va millatining milliy g'ururini, ya'ni milliy tuyg'usini uyg'otadigan terang va mustaqil fikrga ega bo'lishi lozim. O'z tarixini bilgan va undan ruhiy quvvat oladigan xalqni esa yengib bo'lmaydi. Jumladan, uning tarixini, undagi xalqning va millatning milliylikni asrab avaylash, har bir insonning eng muhim vazifalaridan biridir.

Qoraqalpoq xalqining ham kelib chiqishi, qadimiy tarixi va albatta asrlar davomida sayqal topgan milliy qadriyatlari, an'analari, tili, madaniyati va san'ati bo'lib, buyuk o'tmishi asosida o'zligini anglagan chuqur mazmunga ega bo'lgan falsafasi bilan ajralib turadi. Tasviriy san'atining o'ziga xosligi esa, uning milliy urf-odat va an'alarining uyg'unligi bilan alohida ahamiyat kasb etib, an'anaviy shaklga, chuqur tarixiy o'tmishga ega. Bugungi kunda ham san'atdagi an'anaviylik hamda milliy o'ziga xoslik saqlanib qolgan shakllari rivoj topdi. Xususan, N. Axmedova tomonidan ilk marotaba XX asr rangtasvirini o'rganishda yangi masalalar ko'tarildi, san'atning tarixiy-madaniy davomiyligidagi spetsifik murakkabliklarni izohlashga harakat kuzatildi, etnomadaniy o'ziga xoslik tamoyillarini tadqiq etishda yangi yondashuvlar aks etdi. Shu bilan birga qoraqalpoq xalqining tasviriy san'atdagi milliy o'ziga xosligini, an'ana va urf-odatlarini, ko'chmanchi xalqning turmush tarzini asarlarida aks ettirgan rassomlar asarlarini bir yerga jamlagan I. V. Savitskiy



nomidagi Nukus davlat san’at muzeyi rangtasvir kolleksiyasi shakllanishidagi xususiyatlar”ini tadqiq etishga bag’ishlandi. Muzey tarixi va uning asoschisi I.V.Savitskiy (1915-1984 yy.) taqdiri ko’p sonli kitob va maqolalarda aks etgan. U uzoq yillik faoliyati natijasida o’zining monografik uslubdagi komplektatsiya tizimini ishlab chiqdi. U rassomlarning ijodiga tegishli bo’lgan qoraqalpoq milliy madaniyatini targ’ib qiluvchi asarlar bilan bir qatorda, qoraqalpoq xalq hunarmandchiligiga tegishli asori atiqalarni ham to’pladi. Natijada muzeyda XX asr san’ati rivojida murakkab bosqichlar, turfa badiiy jarayonlarni aks ettiruvchi nodir kolleksiya shakllandi. Milliy madaniyatga urg’u berilgan badiiy ifodaviylik, ramziy metafora va tasviriy izlanishlarga ega qoraqalpoq milliy rangtasvir maktabining qaytarilmas qiyofasini belgilab berdi. F.Madgazin, K.Berdimuratov va U.Saparovning manzaralari, P.Karabayev, J.Bekano, M.Ishanov va I.Alibekovning rang-barang mavzuli va uslubiy izlanishlari muntazam ravishda to’plam tarkibiga qo’shib bordi.

1960 yillar oxiri 1980 yillarda Qoraqalpog’iston diyorida shakllanib borayotgan badiiy maktabni bevosita J.Izentayev, K.Saipov, A.Shpadi, A.Utegenov, A.Yerimbetov, J.Lepesov, B.Serekeev kabi ko’plab rassomlarning ijodiy asarlari orqali ko’rish mumkin. Ular yaratgan betakror asarlar bugungi kunda ham o’zining ulug’vorligini yo’qotmadi. Shu jumladan, O’zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, O’zbekiston xalq rassomi, Qoraqalpog’istonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi, Berdaq nomidagi davlat mukofoti sovrindori Jollibay Tanirbergenovich Izentayev Qoraqalpog’iston tasviriy san’atida iste’dodli rangtasvirchilardan biri sifatida yorqin iz qoldirdi. Rassom o’z uslubini va dastxatini yaratish uchun tinimsiz izlanishlar olib bordi. Natijada qoraqalpoq xalqi hayoti, madaniyati va san’atini teran anglashga harakat qilganligi, uni sekin asta o’ziga xos milliy yorqin koloritda asarlar yaratishga da’vat etdi. Shuningdek rassom ijodi turli xil mavzu va janrlarga boy asarlar bilan serjilo tus ola boshladi. J.Izentayevning kompozitsiyalari maishiy hayot tarziga bag’ishlangan bo’lib, unda xalqning bayram kunlaridagi urf-odat va dasturlari ko’plab uchraydi. Asarlaridagi milliy bayramlar, onalik va to’y mavzulari aks etgan har bir obrazdagi amaliy san’at namunalari-taqinchoqlar, milliy liboslardagi har xil naqshlar betakroridir. Uning “Ona”, “Ayollar”, “Mehmonga”, “To’y” kabi asarlari shu jihatdan ham boshqa rassom asarlaridan ajralib kelgan. Hozirda rassom tomonidan yaratilgan asarlar yurtimiz va dunyoning boshqa davlatlari kolleksiyalaridan munosib o’rin egallagan. Shu o’rinda uning yuzga yaqin rangtasvir asarlari I.V.Savitskiy nomidagi Davlat san’at muzeyida saqlanib, o’zining noyobligi va yuqori qiymati bilan ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ham, qoraqalpoq milliy madaniyatini tasviriy asarlarida aks ettirayotgan bir qancha rassomlarni sanab o’tish joiz. Masalan, B.Aytmuratov qoraqalpoq xalqining tarixiy voqealarini va shaxslarini tasvirlagan bo’lsa, J.Lepesov, S.Baybosinov ijodida yorqin ranglarda ifodalangan turli xil maishiy janrdagi kompozitsiyalarini ko’rish mumkin. O’z ijodini milliy ruh bilan boyitib kelayotgan yosh iste’dodlardan A.Qudaybergenov “Alpomishning tug’ilishi”, B.Serekeev “Qoraqalpoq”, Q.Xojamuratov “Tug’ilish”, S.Sabirbayev “Orolning yuragi” kabi bir qator rassomlar ijod qilib kelmoqda.



Rassom N.Shukirullayevning “Shilpiqtagi qora uy” nomli asari asrlardan-asrlarga o‘tib kelgan qoraqalpoq etnografiyasining eng muhim ajralmas qismlaridan biri bo‘lgan-qoraqalpoq o‘tovini ifodalagan..Qoraqalpoq o‘tovlari boshqa xalqlarning o‘tovlaridan alohida ajralib turadi.Ularning farqi konussimon shaklga ega tepa qismining ko‘rinishi,ko‘p miqdorda qalin gilam va bezaklar bilan(qizilbasqur,aqbasqur,janbau va b.)jihozlanganidadir.Rassom o‘z asarini ona yurtining go‘zal manzarasi orqali milliylikni uyg‘unlashtirib matoda ranglar orqali tasvirlagan.

Xulosa qilib aytsak,qadriyatlar-bu odamlar orasidagi jamoatchilik, hamdo‘stlik, hamjihatlik va hamkorlikka asoslangan munosabatlardir.Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng esa,milliy qadriyatlarga e‘tibor yanada kuchayib,mustahkamlanib,xalqimizning jahon hamjamiyati bilan birga rivojlanib borishiga xizmat qilayotganini alohida ta‘kidlab o‘tishimiz o‘rinli.Hozirda muzeylarda va ko‘rgazma zallarida namoyish etilayotgan milliy mavzudagi tasviriy san‘at asarlari yaqin o‘tmishda unitilib ketayozgan moddiy madaniyatni,bu sohadagi an‘analarni qayta tiklashda namuna sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Har bir ijodkor uchun bo‘lsa, qoraqalpoq xalqining boy va ma‘naviy tarixidan kuch-quvvat olib asar yaratish faqr tuyg‘usini vujudga keltirsa,ikkinchi tomondan yuksak milliy g‘ururning yuksalishiga sababchi bo‘ladi.Shu kabi qator asarlar xalqimizning o‘z yurti,tili,ma‘naviyati va madaniyati,qadriyatlariga befarq bo‘lmasdan,aksincha tomoshabinning qiziqishlari yanada ortib borishiga turtki bo‘ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.I.Karimov.Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: Sharq,1988
- 2.I.Karimov. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat,2008
- 3.N.Aimbetov,M.Bo‘ronov,S.Ahmedov Qoraqalpog‘iston. kitob- albom. – T.: Ma‘naviyat,2011
- 4.Лаковская В.Жоллыбай Изентаев.Образ и цвет. – Нукус: Издательство Каракалпакстан,1988
- 5.Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог – Т: 2004

